



# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИМА АЁЛЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

халқаро илмий-амалий конференцияси  
МАТЕРИАЛЛАР ТўПЛАМИ



ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ МУХАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ  
МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ЮНЕСКО ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТИ  
ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ  
ТОШКЕНТ ШАҲАР ХОТИН-ҚИЗЛАР “ОЛИМА” АЁЛЛАР УЮШМАСИ  
TADQIQOT.UZ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЖУРНАЛЛАР ПОРТАЛИ

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИМА АЁЛЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

халқаро илмий-амалий конференцияси  
(Тошкент, 2-3 март 2023 йил)  
**МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**



ТОШКЕНТ-2023



foizga, tadbirkorlik sohasida 35 foizga, siyosiy partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 46 foizga yetdi. Barcha vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat ken-gashlari yo'lga qo'yilishi ham mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollar faolli-gini oshirishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasini gender huquqiy eks-pertizasidan o'tkazish yo'lga qo'yildi. Jamiyat va davlat hayotida faol bo'lgan, tashabbus ko'rsatgan ayollar bilan bir qatorda farzandlarini barkamol insonlar etib voyaga yetkazgan ayollarga, jumla-dan, uy bekalariga ham beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi. O'tgan davr mobaynida ming nafardan ortiq faol ayol ana shu ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Mukofotlanganlarga havas qilib, ularning izidan borayotgan xotin-qizlar soni ortdi. Havas va ishtiyoq ularga kuch-quvvat, katta ruh bermoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga jalb qilish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Shu bois, xotin-qizlar ilm-fan taraqqiyotining barcha sohalari rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi — Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Рахмонова Г. Ш. и др. Ахлоқ–шахс тараккиётининг юкори маънавий пойдевори //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 160-165.
2. Рахмонова Г. Ш. и др. Талаба-ёшларни тарбиялашда маънавий-ахлоқий кадриятларнинг ўрни ва аҳамияти //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 108-113.
3. Rakhmonova G. S. The Content of the Development of Spiritual and Moral Competencies of Students //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – т. 2. – №. 2. – С. 179-183.
4. Рахмонова Г. Ш., Жалилов З.Б. Развитие духовно-нравственных способностей у будущих учителей //academy. – 2020. – №. 12 (63). – с. 62-64.
5. Рахмонова Г. Ш. Содержание развития духовно-нравственных компетенций у студентов //Проблемы педагогики. – 2022. – №. 1 (59). – С. 14-16.

**Raxmonova Gullola Shavkatovna,**  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
gullolaraxmon76mail.ru

**Idiyeva Manuchehra,**  
Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

#### **AYOLNING OILADA VA JAMIYATDAGI O'RNI**

#### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an'analarni saqlab qolish hamda targ'ibot qilish, oila demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish haqida yozilgan.

**Tayanch iboralar:** ma'naviy-axloqiy, oila, jamiyat, demokratik huquq, fuqarolik jamiyat,urf-odat, an'ana.



## ABSTRACT

This article is about strengthening and developing the family, improving the spiritual and moral environment in families, preserving and promoting the most instructive family traditions in society, building a family democratic legal state and forming a civil society.

**Key words:** spiritual and moral, family, society, democratic law, civil society, tradition, tradition.

Oila demokratik huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida juda muhim vazifalarni bajaradi. Eng avvalo, u insonni kamol toptiradi, ijtimoiy qadriyatlar va milliy an'analarni avloddan-avlodga o'tkazishda asosiy zanjir vazifasini o'taydi. Oila – xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Mamlakatimizdagi ijtimoiy demografik ahvolning muhim xususiyati – jamiyatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.

Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalargacha o'z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o'rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar orqali pand-nasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go'zal, jismonan va ma'nian yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo'li — barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmashligini ta'kidlashgan.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda deb bilayotgani yuqoridagi an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan milliy hamda ma'naviy qadriyatlarimiz asosida ushbu sohada yillar davomida to'planib qolgan, e'tibordan chetda qolib kelgan muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari oldiga eng muhim va dolzarb vazifalar qo'yildi. Mazkur Farmonga binoan, Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi oila instituti sohasida yagona davlat siyosatini yurituvchi tizim sifatida tashkil etildi. Markazning asosiy vazifasi davlat va jamoat tashkilotlari, parlament, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O'zbekiston oilalarini mustahkamlash g'oyasi atrofida birlashtirish, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirib borish, mamlakatda faqat sog'lom oila — sog'lom jamiyat ustuni bo'la olishini aholi ongiga singdirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish orqali oila institutini mustahkamlash etib belgilangani mamlakatimizda bu borada mutlaqo yangi bosqichdagi sa'y-harakatlar boshlanganidan dalolat beradi.

O'z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali oila mezonlarini belgilash hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy printsipini keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleks yondashish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar



kafolatlarini ta'minlashning asosiy printsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir. Bir so'z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e'tiborning ifodasi bo'lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo'lmagan.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma'naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurlu, piru badavlat otaxon va onaxonalar ko'z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o'ylantirgan masala bu – oila qo'rg'onining buzilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi omil sifatida g'arbona yashash tarzining o'zlashtirilishi bo'lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma'naviy jihatdan etarli tayyorgarlikka ega bo'lmaslik masalasidir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Рахмонова Г. Ш. и др. АХЛОҚ-ШАХС ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЮҚОРИ МАЪНАВИЙ ПЎЙДЕВОРИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMYU JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 160-165.

2. Рахмонова Г. Ш. и др. ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMYU JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 108-113.

3. Rakhmonova G. S. The Content of the Development of Spiritual and Moral Competencies of Students //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-183.

4. Рахмонова Г. Ш., Жалилов З. Б. РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ //Academy. – 2020. – №. 12 (63). – С. 62-64.

5. Рахмонова Г. Ш. СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ //Проблемы педагогики. – 2022. – №. 1 (59). – С. 14-16.

**Sharipova Maxbuba Baxshilloeyvna,**

Buxoro davlat universiteti,

Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

**Ramazonova Feruza Umedovna**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

maxima.84@mail.ru

maxbuba013@gmail.com

#### **AYOLLARNING OILA VA JAMIYATDAGI MAVQEYINI YUKSALTIRISH HAMDA MA'NAVY-RUHIY DUNIYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI**

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolada ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, ularning ma'naviy-ruhiy duniyosini boyitishda qahramonlik eposining o'mi, milliy epik dostonlarimizni o'rgatish orqali yosh avlodning ruhiy va ma'naviy duniyosini boyitish masalasi bayon etilgan.



10.	Мухидова Г.Ю. BOLALARDA TAFAKKURNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	196
11.	Ахматова Д. Д. Бектемирова З.О. <i>Илмий раҳбар</i> : доцент Нишантаев М.К ГЕЛМИНТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШДА СУПРАМОЛЕКУЛЯР БИРИКМАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	200
12.	Пардаева З., Жумабоева Р. Ражабова И.Х Умарова С.М. ATROF – OLAM BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OILAGA NISBATAN MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH.....	203
13.	Рахимова С МАКТАВГАСЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA RIVOJLANISH MARKAZLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR.....	205
14.	Рахмонова Г.Ш О'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB-QUVVATLASH VA ULARNING JAMIYATDAGI FAOL ISHTIROKI.....	208
15.	Рахмонова Г. Ш. Идиева М. AYOLNING OILADA VA JAMIYATDAGI O'RNI.....	210
16.	Шарипова М.Б . Рамазонова Ф.У AYOLLARNING OILA VA JAMIYATDAGI MAVQEYINI YUKSALTIRISH HAMDA MA'NAVYI-RUHIY DUNIYOSINI BOYTTISHDA QANRAMONLIK EPOSINING O'RNI.....	212
17.	Шомуродова С. Болтаева Н. МАКТАВГАСЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA RIVOJLANISH MARKAZLARIDA TA'LIM TARBIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.....	215
18.	19 Хакимова М. Файзиев У. Мусаханова Г.М. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ОИЛАДАГИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯНИ МУСТАХКАМЛАШ ВА УНДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ.....	218
19.	Мусаханова Г. М. Қобилжонова М. О. ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАЁТДАГИ РОЛИ.....	220
20.	Яхшиева М.Т. ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТУРЛИ ТАРМОҚЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АЁЛЛАРНИНГ РОЛИ.....	223

#### **V-ШЎБА. ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР ХУҚУҚЛАРИ КАФОЛАТЛАРИ**

1.	Анорбоева С.А. JAMIYATIMIZDAGI GENDER TENGLIK: AYOLLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARI.....	227
2.	Рахмонбердиева Н. Б. ЎЗБЕКИСТОН ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ ТАРИХИДА ТАМАРАХОНИМ ВА УНИНГ УЙ-МУЗЕЙИ АҲАМИЯТИ.....	230
3.	Ибрагимова Г. KX DIRECTIONS FOR FORMING THE CULTURE OF COMMUNICATION IN IMPROVING THE QUALITIES OF PROFESSIONAL COMPETENCE.....	234
4.	Қўйлиев Т, Рахмонбердиева Н, ЯНГИ ЖАМИЯТДА БАХТ ТОПГАН АЁЛ.....	238
5.	Элмуратова Ш. РОЛЬ ТАМАРАХАНИМ И ЕЕ ДОМА-МУЗЕЯ В ИСТОРИИ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	241
6.	Элмуратова Шохиста Аблакуловна, ROLE OF TAMARAKHANIM AND ITS HOUSE-MUSEUM IN THE HISTORY OF GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN.....	245
7.	Акбарова С. Ш, Азизова М ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ - ХОТИН-ҚИЗЛАР ХУҚУҚЛАРИ КАФОЛАТИДИР.....	248
8.	Файзуллаева Н. ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИДА АЁЛЛАРНИНГ ХУҚУҚЛАРИНИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ.....	252
9.	Абдурахмонов Х.И. Дадакулов Э. Т. ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ.....	254
10.	Очилов Н.Ў. Очилова М.Ў. Тўлқинова А.М. GENDER TENGLIGI: AYOLLARNING HUQUQ VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	258